

Zo'rvonlikdan aziyat chekkanda qayerdan yordam olish mumkin?

Maslahat



Danuri yordam markazi ☎ 15771366

- 365kun 24soat davomida maslahat va tarjima bo'yicha yordam

Zo'rvonlikdan aziyat chekkan migrant ayollar uchun maslahat markazi

Maslahat va ko'maklashishga oid ma'lumotni taqdim etiladi.

- Mansub shaxslar: Migrant ayollar va ularning qaramog'idagi oila a'zolari

Himoyalash



Zo'rvonlikdan aziyat chekkan migrant ayollar reabilitatsiya maskani

Himoyalash va maslahat berish

- Qabul qilinadiganlar: Migrant ayollar va ularning qaramog'idagi farzandlari
- Muddati: 2yil

Boshpana berish



Zo'rvonlikdan aziyat chekkan migrant ayollar uchun adaptatsiya markazi

Boshpana berish (maskandan foydalanganlar)

- Qabul qilinadiganlar: Migrant ayollar va ularning qaramog'idagi farzandlari
- Muddati: 2yil

Mustaqil hayot



Mustaqil turmush kechirishga ko'maklashish markazi

Mustaqil turmush kechirishga ko'mak (maskandan foydalanganlar)

- Qabul qilinadiganlar: Migrant ayollar va ularning qaramog'idagi farzandlari
- Muddati: 2yil

< Ijaraga olingan uy berish haqida >

- Qabul qilinadiganlar: Migrant ayollar va ularning qaramog'idagi bolalari
- Muddati: 2yil, yana 2yilga uzaytirish mumkin.

Zo'rvonlikdan aziyat chekkanda quyidagi tashkilotlardan yordam olish mumkin.



Maslahat markazi

- Oiladagi zo'rvonlik, jinsiy zo'rvonlik, fohishalikka majburlash kabi holatlardan aziyat chekkan shaxslarga maslahat va ko'mak beriladi.
- Bepul huquqiy va tibbiy yordam
- Yashash uchun ruxsatnoma muddatini uzaytirish, fuqarolikni rasmiylashtirishda ko'maklashish
- Koreya hayotiga moslashish va insoniy huquqlarini himoya qilish bo'yicha maslahat berish kabilar
- Zo'rvonlikdan aziyat chekkan migrant ayollar reabilitatsiya maskani kabi tegishli tashkilot bilan bog'lanishda ko'mak



Reabilitatsiya maskani

- Boshpana va ovqat bilan ta'minlanadi.
- Maslahat va tibbiy yordam ko'rsatiladi.
- Tergov, sud huquqiy yordam ko'rsatiladi.
- Istiqomat qilish, davlatdan chiqishda ko'mak
- Kasb-hunar o'rgatish va ishga joylashish bo'yicha ma'lumotlarni taqdim qilish, mustaqil turmush kechirishi uchun yordam puli bilan ta'minlash
- Bundan tashqari jabrlanganlarni himoya qilish uchun kerakli boshqa choralar



Adaptatsiya markazi

- Boshpana va ovqat bilan ta'minlanadi.
- Mustaqil hayot kechishi va mustaqil turmush tarziga erishishi uchun ko'mak



Mustaqil turmush tarziga erishishga ko'maklashish markazi

- Kasb-hunar o'rgatish (Mutaxassislikka oid malaka sertifikatlarini olishda ko'mak)
- Ishga joylashishda ko'mak
- Qaramoqdagi bolalar tarbiyasida ko'mak
- Mustaqil turmush tarziga erishish uchun asos yaratib berish

Mustaqil turmush tarziga erishishda yordam puli bilan ta'minlash tizimi >

Zo'rvonlikdan aziyat chekkan migrant ayollar jamiyatga moslashishi uchun ko'mak

- Mansub shaxslar: Ijtimoiy himoyalash muassasalaridan chiqib mustaqil hayot kechirish niyatidagi migrant ayollar
- To'lov miqdori: 1 kishi uchun 5 million vongacha (tekshiruvdan so'ng qaror qabul qilinadi)

Migrant ayollar uchun zo'rvonlik oldini olish bo'yicha ma'lumotnoma



Zo'rvonlik nima?

Oiladagi zo'rvonlik

Oila a'zolarining o'rtasida jismoniy, ruhiy yoki mulkiy zarar yetkaziladigan hodisa

Jinsiy zo'rvonlik

Ikkinchi shaxsning roziligisiz majburan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy aloqa qilish maqsadida zo'rvonlik bilan ikkinchi shaxsga jismoniy, ruhiy, ijtimoiy zarar yetkazadigan harakat

Fohishalikka majburlash

Biror bir shaxs bilan moddiy va mulkiy foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan jinsiy aloqa va shunga o'xshash jinsiy munosabatlar

Zo'rvonlikdan aziyat chekkaningizda ikkilanmasdan bizdan yordam so'rang!



Migrant ayollarga nisbatan sodir etiladigan oilaviy zo'rvonlik nima?



Jismoniy zo'rvonlik

Ikkinchi shaxsning tanasiga jismoniy zarba berish kabi moddiy kuch ishlatgan holda jarohat yoki zarar yetkazadigan harakat



Dahanaki va ma'naviy zo'rvonlik

O'zining so'zlari orqali ikkinchi shaxsga ma'naviy zarar yetkazish harakati



Jinsiy zo'rvonlik

Jinsiy sharmandagarchilikka undaydigan harakat yoki istalmagan jinsiy aloqani talab qilish harakati



Iqtisodiy zo'rvonlik

Kundalik yashash xarajatlari uchun pul bermaslik yoki ikkinchi shaxsning roziligisiz o'z bilganicha mulkini tortib olish uchun sodir etilgan harakat.



Qarovsiz qoldirish

Beparvolik va suvuq munosabatda bo'lish yoki xavfli vaziyatlarda qarovsiz qoldiradigan harakat



Cheklash

Pasport kabi shaxsni tasdiqlovchi hujjatni o'z egasiga bermasdan atrofdagi munosabatlardan cheklab qo'yish harakati (Koreys tilini o'rganish guruhi, vatandoshlar yig'ilishi kabilardan cheklash)



Jinsiy zo'rvonlikdan aziyat chekkanda nima qilish kerak?

Telefon orqali maslahat olish

Danuri yordam markazi
1577-1366
Xotin-qizlar uchun tezkor aloqa
women 1366

Migrant ayollar uchun maslahat markazi bilan maslahat qilgan holda **tarjimon xizmatidan foydalanish**

Darhol 112 telefon raqami orqali politsiyaga xabar qilish

Do'stlar, tanishlar, qo'shnilardan **yordam so'rash**

Zo'rvonlik natijasida jarohat olingan bo'lsa, davolanib, **davolanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni rasmiylashtirish**

Kerakli buyumlarni tayyorlab qo'yish

Pasport, chet ellil ID kartasi, naqd pul, kiyim, telefon raqami kabilar



Zo'rvonlikdan aziyat chekkanda qayerga murojaat qilish kerak?

Danuri yordam markazi ☎ 15771366

- 365kun 24soat davomida tezkor yordam
- Migrant ayollar va multi-madaniyatli oilalar uchun turmush tarziga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash va umumiy ko'maklashish
- 13ta tilda maslahat berish va tarjimon xizmati bilan ta'minlash
- Koreys, vyetnam, xitoy, filippin, mo'gul, rus, tay, kambodja, yapon, o'zbek, laos, nepal, ingliz tili

Zo'rvonlikdan aziyat chekkan migrant ayollar uchun maslahat markazi

- (Tegu) 053-944-2977
- (Inchon) 032-446-0091
- (Chunbuk) 043-223-5253
- (Chonnam) 061-282-1562
- (Jeju) 2019-yilda ochilish rejalashtirilgan
- * Seul shahri migrant ayollar uchun maslahat markazi 02-733-0120

Politsiyaga xabar berish ☎ 112

- Voqea joyini tark etish va shoshilinch himoyalani

Ayollar uchun tezkor aloqa ☎ 1366

- 365kun 24soat davomida shoshilinch maslahat, vaqtinchalik himoya, tizimli yordam ko'rsatish
- Tibbiy yordam, huquqiy yordam va tegishli tashkilot bilan bog'lanishda ko'maklashish * Koreys tilida amalga oshiriladi